



KITOBXONLIK, ISLOHOTLAR VA INSONGA E'TIBOR HAMDA SIFATLI TA'LIM

Tohirova Malika Umidovna

Buxoro shahridagi 32-sonli maktab 9-sinf o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda kitobxonlik muhitini shakllantirish, kitob madaniyatini oshirish hamda yurtimizda kitobxonlar safini kengaytirish borasida qilinayotgan ishlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, amaldagi siyosatimizda yoshlarga, ayniqsa bilim olishiga bo'lgan e'tibor va yaratilip berilayotgan imkoniyatlar va ularning ahamiyati haqida hikoya qilinadi. Nafaqat bizning vatanda, balki butun dunyoda bugun kitob o'qish davr talabi bo'lib, yetarli ilmga ega bo'lмаган kadrlar raqobatda ortda qolib ketayotgan bir paytda ushbu mustaqil O'zbekistonda amalgalash oshirilib kelinayotgan oqilona islohotlar haqida to'xtalib o'tilgani muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Annotation: This article talks about the work being done to create a reading environment in our country, improve book culture, and expand the number of readers in our country. Also, in our current policy, attention is given to young people, especially to education, and the opportunities created and their importance are told. Not only in our country, but also in the whole world today, reading books is the demand of the times, and it is important to focus on the rational reforms that are being implemented in this independent Uzbekistan at a time when personnel who do not have enough knowledge are falling behind in the competition.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik, kitob madaniyati, Vazirlar Mahkamasi, odob-axloq, qonun, ilm, tarbiya.

Key words: Reading, book culture, Cabinet of Ministers, manners, law, science, education.

Odamning ulug'vorligi uning bo'yli bilan o'lchanmaganidek,
xalqning ulug'ligi ham, uning soni bilan o'lchanmaydi,
yagona o'lchovi-ning aqliy kamoloti va axloqiy barkamolligidir.

V.Gyugo

Farzand tarbiyasidagi eng asosiy omillardan biri bu kitob mutolaasidir. "Kitob", "kitobxonlik", "kutubxona" so'zlarining o`zagi aslida arabchadan olingan va bir maqsadga, ya`ni inson ma`naviyatini boyitishga xizmat qiladi. Ma'rifat, ziyo, komillikka erishish, avvalo, mutolaa bilan, ilm-fan sirlarini puxta egallash bilan qo'lga kiritiladi. Yurtimizda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun amalgalash oshirilayotgan islohotlar ham bezizga emas, binobarin, kelajak avlodning kamoloti ilm olish, bilimli bo'lish bilan belgilanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori, shular jumlasidandir.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrdagi № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi va boshqa qator hujjatlar soha rivoji uchun dasturul amal vazifasini o'tamoqda. Vazirlar



Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini uch bosqichda amalga oshirish ko'zda tutilgan. I bosqich – 2020- 2021 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillash-tirish chora-tadbirlarini amalga oshirish; II bosqich – 2022-2023 yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash; III bosqich – 2024-2025 yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash kabi muhim mezonlar belgilangan.

2022-yilning 20-dekabr sanasida Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga navbatdagi Murojaatnomasini o'zgacha hayajon va diqqat-e'tibor bilan tingladik. Murojaatnomada xalqimiz istiqboli hamda Yangi O'zbekiston yoshlariga berilayotgan ta'lim-tarbiyaga e'tibor va g'amxo'rlik, o'qituvchi hamda murabbiylarimizga beqiyos imkoniyatlar yaratish uchun har bir rahbar, har bir fuqaro mas'ul ekanligi bilan bog'liq vazifalar aniq belgilab berildi. Eng avvalo, bu yilga berilgan nomni butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlar xursandchilik bilan kutib oldilar.

Chunki respublikamizda 2023-yil – “Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim yili” deb e'lon qilindi. Yangi 2023-yilda ham yoshlarni qo'llab-quvvatlash, sifatlari ta'limni yanada mustahkamlash bo'yicha yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamlari islohotlar izchil davom etadi. “Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”. Maktablarda ta'lim sifati hamda jamiyatda o'qituvchi kasbinining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023-yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'ladi”, – dedilar davlatimiz rahbari. Muhtaram Prezidentimiz ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'li ekanligini alohida e'tirof etdilar. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek: “Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi”.

Muxtasar qilib aytganda, yangicha qarash, yangi g'oya va yangi rejalgina davlatning istiqboli, jonajon Vatanimiz ravnaqi va xalqimizning farovonligiga daxldor amaliy natijalarni belgilab berishi aniq. Shu maqsadda biz yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko'proq ahamiyat berishimiz va bu yo'lda sobitqadam bo'lishimiz lozim. Zero, sifatlari ta'lim-tarbiya – taraqqiyot garovidir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022-2026 yillarda Ozbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi boyicha Taraqqiyot strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid davlat dasturini organish boyicha ilmiy-uslubiy risola. T.: 2022 y
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning oliy Majlisiga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma [Matn]. – T.: «Ma'naviyat», 2021. – 312.
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik Ozbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. T.: O'zbekiston. 2021 y



4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O’zbekiston” NMIU, 2021. – 488 b.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29.12.2022
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24.01.2022.